XALQ DEPUTATLARI KO'KDALA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 4-dekabr VII-3-014-4-224-K/24 Ko'kdala tumani

Ko‘kdala tumani bo‘yicha 2024-yil 1-oktabrdan 2025-yil 1-aprelga qadar sug‘orish ishlari uchun ajratilgan suv limitini tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini shakllantirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Ko‘kdala tuman suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi tomonidan nousuv davri uchun yakuniy iste’molchilar kesimida ekinlarni sug‘orish uchun suv olish limitlarini hududlar bo‘yicha tasdiqlangan limit doirasida ishlab chiqish bo‘yicha takliflarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini shakllantirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Ko‘kdala tumani suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi va tuman qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limining nousuv davri uchun yakuniy iste’molchilar kesimida ekinlarni sug‘orish uchun suv olish limitlari bo‘yicha takliflari **1-ilovaga** muvofiq ma’qullansin.

3.Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (S.Serkayev), Tuman suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi (M.Ahmedov)ga;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli qarori asosida ishlarni tashkil etish;

-suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy qiluvchi fermer xo‘jaliklari, klaster tashkilotlari va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning takliflarini belgilangan tartibda o‘rganib chiqish va xulosalar berish;

-yer uchastkasining meliorativ holati (tuproq sho‘rlanish darajasi, yer osti suv sathi), suv va elektr energiya ta’minoti hamda talabgorning moliyaviy holatini tahlil

qilgan holda suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

-suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari tizimidan samarali foydalanish bo‘yicha talabgorlar va boshqa manfaatdorlar uchun qisqa muddatli o‘quv kurslarini tashkil etish;

-suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy qilish va ulardan foydalanish bo‘yicha tumanlararo tajriba almashuvlarni yo‘lga qo‘yish;

-suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy qilish bo‘yicha talabgorlarga soha bo‘yicha malakali mutaxassislarni biriktirish hamda ularga tizimdan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy yordam ko‘rsatish;

-tik quduqlarning nasoslarini ta’mirlash va xo‘jalik ichki sug‘orish tarmoqlarini rekonstruksiya qilish;

-irrigatsiya va melioratsiya obyektlarining xavfsiz va barqaror ishlashini ta’minlash (irrigatsiya-melioratsiya obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash-tiklash) ishlarni to‘liq yakunlash vazifalari;

-belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida har yarim yilda xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berish vazifasi yuklatilsin.

3.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiyasi kotibi (A.Tojiyev) hamda Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (S.Serkayev)lar zimmasiga yuklatilsin

4. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi DJURAYEV XURRAM ABDURAZIKOVICH

Xalq deputatlari Ko'kdala tumani Kengashining
2024-yil 4-dekabrdagi
VII-3-014-4-224-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Ko‘kdala tuman “Suv yetkazib berish xizmati” Davlat muassasasi xizmat ko‘rsatuvchi Ko‘kdala tumani hududlari uchun 2024-2025 yil nousuv mavsumida manbalardan ajratilgan cheklangan suv miqdori (limiti)

Hududlar nomi	Hajmi mln.m3	Oktabr			Noyabr			Dekabr			Yanvar			Fevral			Mart		
		I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III
Ko‘kdala	2.78	0.28	0.28	0.30	0.30	0.30											0.40	0.42	0.50
A.Yassaviy	5.78	0.52	0.52	0.58	0.58	0.58											0.84	0.98	1.18
Navro‘z	2.8	0.27	0.28	0.30	0.30	0.30											0.40	0.44	0.51
F.Xo‘jayev	3.03	0.31	0.31	0.35	0.35	0.35											0.39	0.43	0.54
Chiyal	2.17	0.18	0.19	0.23	0.23	0.23											0.32	0.37	0.42
Chorvador	0.5	0.050	0.051	0.054	0.057	0.061											0.074	0.075	0.078
Sho‘rquduq	1.06	0.01	0.10	0.11	0.11	0.11											0.14	0.17	0.22
D.Safarov	1.88	0.16	0.17	0.20	0.20	0.20											0.26	0.32	0.37
Hudud chegarasi	**17.00**	**1.54**	**1.66**	**1.86**	**1.86**	**1.86**											**2.47**	**2.81**	**3.35**
Tumanga chegara	**14.75**	**1.31**	**1.41**	**1.58**	**1.58**	**1.58**											**2.10**	**2.39**	**2.85**
Tuman bo‘yicha jami																			
Shundan:																			
Eski anhor kanali	**18.00**	**1.73**	**1.85**	**2.07**	**2.07**	**2.07**											**2.75**	**3.13**	**3.74**
KMK	**0.5**	**0.050**	**0.051**	**0.054**	**0.057**	**0.061**											**0.074**	**0.075**	**0.078**
Yer osti suvlari	**1.50**	**0.03**	**0.05**	**0.06**	**0.06**	**0.06**											**0.08**	**0.10**	**0.12**
Jami	**20.00**	**1.81**	**1.95**	**2.18**	**2.19**	**2.19**											**2.90**	**3.31**	**3.94**